2026-yil – “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”

IJODIY PARVOZ

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTINING MA’NAVIY-MA’RIFIY, ILMIY, IJTIMOIY GAZETASI

2026-yil oktabr № 10 (149) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi_uz

Ona tilim o‘lmaydi

ERKIN VOHIDOV,
O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston xalq shoiri

Notiq dedi:
“Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo‘qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda”.

“Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan!”
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.

Kim darg‘azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante, Shiller va Bayron,
Firdavsiy, Balzak, Tagor.

“Va’zingni qo‘y, birodar,
Sen aytganing bo‘lmaydi”.
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim o‘lmaydi”.

– Hey, bu qanday aqida! –
Qo‘lida tabarruk jom,
Go‘zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.

Ehtirosli, otashdil
Beranje so‘rdi nolon:
– Nahotki, farangi til
Yo‘qolgusi bir zamon!

Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:
– Kim qasd etib tig‘ urdi
Ona tilim joniga!

Fuzuliy yondi:
– Ozar
Tili guldek so‘lmaydi.
Barcha dedi barobar:
“Ona tilim o‘lmaydi”.

Kamalakdek rango-rang
Bo‘lsin deb san’at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.

Beqadr bo‘lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo‘qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!

“Faust” yondi gurillab,
“Xamsa” o‘tga tutashdi.
Bir sado jahon bo‘ylab
Taraldi, tog‘lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!



TIL BOR EKAN, millat barhayot

Til – millatning ruhi, xalqning o‘zligi va ma’naviy qiyofasini namoyon etuvchi bebaho boylikdir. Inson o‘z fikri, his-tuyg‘ulari va dunyoqarashini til orqali ifodalaydi. Xalqning tarixi, urf-odatlari, an’analari va madaniyati ham til vositasida avloddan-avlodga yetib boradi. Shu bois, tilni asrash, uni rivojlantirish va qadrlash har bir millatning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar mavjud. Har bir til o‘ziga xos tarixi, so‘z boyligi va ifoda imkoniyatlariga ega. Ularning har biri insoniyat madaniyatining ajralmas qismidir. Ona tili esa inson uchun alohida ahamiyatga ega, chunki u bolalikdan boshlab shakllanadigan tafakkur, muloqot va ma’naviy tarbiyaning asosiy vositasidir. O‘zbek tili ham xalqimizning ko‘p asrlik tarixi, boy adabiy merosi va milliy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan. Uning go‘zalligi, jozibasi va ifoda imkoniyatlari asrlar davomida yaratilgan badiiy asarlar, dostonlar, maqollar va hikmatli so‘zlarda namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘zbek tilini qadrlash va uning nufuzini oshirish nafaqat tilshunoslar, balki butun jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Har bir xalqning o‘zligini anglashida uning tili muhim o‘rin tutadi. Til orqali xalqning qanday yashagani, nimalarga ishongani, qanday orzu-intilishlar bilan yashab kelgani va qanday qadriyatlarni e’zozlagani namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda o‘zbek tili milliy o‘zligimizni ifodalovchi, xalqimizni birlashtiruvchi va ma’naviy merosimizni saqlovchi muhim vositadir.

O‘zbek tilining rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq. Ajdodlarimiz asrlar davomida tilimizni boyitib, uning imkoniyatlarini kengaytirib kelganlar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning o‘zbek tili taraqqiyotidagi xizmatlari beqiyosdir. U o‘zining betakror ijodi orqali turkiy tilning yuksak badiiy imkoniyatlarini namoyon etib, uning boy va mukammal adabiy til ekanini isbotlagan.

Davomi 2-betda

Bugungi sonda:

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA VATAN OBRAZI VA MILLIY G‘URUR IFODASI

“Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim”.

Mazkur misralarda Vatan inson hayotining eng muhim ma’naviy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. 3

BOYSUN BAG‘RIDAN MADANIYAT VA SAN’AT SARI BOSHLANGAN YO‘L

Bir paytlar Boysun bag‘rida huquqshunos bo‘lishni orzu qilgan yosh bola san’at va madaniyat olamiga kirib keldi. Bu olam uni o‘z bag‘riga oldi. 4

KITOB MUTOLAASI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA **KUTUBXONALARNING ROLI**

Raqamli texnologiyalar davrida bosma kitoblar bilan bir qatorda elektron kitoblar, audiokitoblar va raqamli kutubxonalar keng ommalashmoqda. 6

CHANQOVUZ SADOSI

Changqovuzni chalish muayyan mahoratni talab etadi: uni lab orasida ushlab, tilchasini barmoq bilan tez tebratish kerak bo‘ladi. 7

E’tirof
2026-yil oktabr
№ 10 (149)



TIL BOR EKAN, millat barhayot

Boshlanishi 1- betda

SHIRIN MAXMUDOVA,
“Turizm va mehmondo‘stlik” ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Alisher Navoiy asarlari bugungi kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Shoirning g‘azallari, dostonlari va falsafiy qarashlari nafaqat adabiyotimizning, balki xalqimiz ma’naviyatining ham muhim qismidir. Navoiy merosi ona tiliga muhabbat, so‘zga hurmat va fikrni go‘zal ifodalash madaniyatini o‘rgatadi. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Oybek va boshqa ko‘plab ijodkorlarimiz o‘z asarlari bilan o‘zbek tilining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shganlar. Ularning ijodi tilimizning boyligini, xalqimizning tafakkuri va ma’naviy dunyosi naqadar keng ekanini ko‘rsatadi. Demak, o‘zbek tilini o‘rganish va qadrlash orqali biz nafaqat muloqot vositasini, balki ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosni ham asrab-avaylagan bo‘lamiz.

1989-yil 21-oktyabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Ushbu tarixiy voqea xalqimiz hayotida muhim o‘rin tutadi. Chunki davlat tili maqomi o‘zbek tilining ijtimoiy va siyosiy hayotdagi mavqeini mustahkamlash, uni rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarimizni e’zozlash yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mustaqillik yillarida davlat tilining nufuzini oshirish, uning qo‘llanish doirasini kengaytirish va zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Bugungi kunda o‘zbek tili ta’lim, ilm-fan, madaniyat, ommaviy axborot vositalari va davlat boshqaruvi kabi ko‘plab sohalarda qo‘llanmoqda. 21-oktyabr sanasi yurtimizda O‘zbek tili bayrami sifatida nishonlanadi. Ushbu bayram xalqimizning ona tiliga bo‘lgan mehr-muhabbatini ifodalash, yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va tilimizning jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi. O‘zbek tili bayrami bizga bir haqiqatni eslatadi: tilga hurmat faqat bayram tadbirlarida aytiladigan chiroyli so‘zlar bilan cheklanmasligi kerak. U kundalik hayotimizda, yozishmalarimizda, rasmiy hujjatlarimizda va o‘zaro muloqotimizda ham namoyon bo‘lishi zarur.

Til – millatning ma’naviy boyligi. O‘zbek tilining boyligi, avvalo, uning so‘z xazinasida namoyon bo‘ladi. Tilimizda mehr, oqibat, andisha, or-nomus, vatanparvarlik, sadoqat va insoniylik kabi tushunchalarni ifodalovchi ko‘plab so‘zlar mavjud. Xalq og‘zaki ijodida saqlanib kelayotgan maqollar, matallar, ertaklar va dostonlar esa xalqimizning asrlar davomida shakllangan donishmandligini aks ettiradi. Ona tilida ravon va mazmunli so‘zlashish insonning fikrlash qobiliyatini namoyon etadi. So‘zlarni o‘rinli tanlash, fikrni aniq ifodalash va suhbatdoshni hurmat qilish muloqot madaniyatining asosiy belgilaridir. Bu fazilatlar oilada, ta’lim muassasalarida va jamiyatda shakllanadi. Shu sababli ona tilini asrash faqat imlo qoidalariga rioya qilish bilan cheklanmaydi. Uning ma’naviy boyligini anglash, adabiy merosimizni o‘rganish va til orqali ifodalanadigan qadriyatlarni saqlash ham bu vazifaning muhim qismidir.

Bugungi globallashuv davrida dunyo xalqlari o‘rtasidagi aloqalar tobora kengayib bormoqda. Xorijiy tillarni o‘rganish, boshqa mamlakatlar madaniyati bilan tanishish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zamonaviy hayotning muhim talablariga aylanmoqda. Bunday sharoitda ko‘p tilni bilish inson uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq xorijiy tillarni o‘rganish ona tilining ahamiyatini kamaytirmaydi. Aksincha, o‘z ona tilini chuqur bilgan inson boshqa tillarni ham ongli ravishda o‘rganadi va turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni yaxshiroq anglaydi. Bugungi kunda ayrim hollarda ijtimoiy tarmoqlarda so‘zlarni noto‘g‘ri yozish, imlo qoidalariga rioya qilmaslik yoki o‘zbek tilida muqobili mavjud bo‘lgan so‘zlarni o‘rinsiz ravishda boshqa tillardan olish holatlari uchraydi. Bunday holatlar til madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli internet va raqamli platformalarda ham adabiy til me’yorlariga e’tibor berish zarur.

Shu bilan birga, boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarning barchasini rad etish ham to‘g‘ri emas. Tillar doimo o‘zaro aloqada rivojlanadi. Muhimi, yangi so‘zlardan o‘rinli foydalanish, zarur hollarda o‘zbekcha muqobillarni qo‘llash va tilimizning tabiiy ifoda imkoniyatlarini boyitib borishdir. Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagini belgilovchi asosiy kuchdir. Ularning ona tiliga bo‘lgan munosabati kelajak avlodning til madaniyati va milliy qadriyatlarga munosabatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois yoshlarda ona tiliga muhabbatni shakllantirish, ularni kitob mutolaasiga jalb etish va to‘g‘ri nutq madaniyatini rivojlantirish zarur. Kitob o‘qish insonning so‘z boyligini oshiradi, tafakkurini kengaytiradi va fikrni izchil ifodalashga yordam beradi. Ayniqsa, o‘zbek adabiyotining mumtoz va zamonaviy asarlarini mutolaa qilish orqali yoshlar tilimizning boyligi va go‘zalligini chuqurroq anglaydilar. Ta’lim muassasalarida ona tiliga bag‘ishlangan tadbirlar, adabiy kechalar, she’rxonlik tanlovlari va ilmiy anjumanlar o‘tkazilishi ham katta ahamiyatga ega. Bunday tadbirlar yoshlarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularda ijodkorlik va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Tilning rivojlanishi faqat davlat yoki tilshunos olimlarning faoliyatiga bog‘liq emas. Bu jarayonda har bir fuqaroning o‘z o‘rni bor. Ota-onalar farzandlariga ona tilida to‘g‘ri so‘zlashishni o‘rgatishi, o‘qituvchilar til madaniyatini shakllantirishi, ijodkorlar esa tilimizning badiiy imkoniyatlarini namoyon etishi mumkin. Tilga e’tibor – millatga e’tibor. Ona tilining qadrini bilish esa xalqning o‘z tarixiga, madaniyatiga va kelajagiga bo‘lgan hurmatini anglatadi. Shuning uchun o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan har qanday ezgu tashabbusni qo‘llab-quvvatlash barchamizning vazifamizdir.

Xulosa qilib aytganda, til bor ekan, millatning tarixi, madaniyati va ma’naviy merosi yashaydi. Ona tili xalqni birlashtiradi, uning o‘zligini saqlaydi va kelajak avlodga ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tili ham xalqimizning asrlar davomida shakllangan bebaho boyligi, milliy g‘ururi va iftixoridir. Zero, ona tilini qadrlagan inson o‘z xalqini qadrlaydi, xalqini qadrlagan inson esa uning kelajagiga befarq bo‘lmaydi. Shunday ekan, ona tilimizning sofligini asrash, uning boyligini namoyon etish va nufuzini yuksaltirish yo‘lida barchamiz birdek harakat qilishimiz lozim. Til bor ekan, millat barhayot. Ona tilimiz yashasa, milliy o‘zligimiz, ma’naviyatimiz va ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosimiz ham abadiy yashaydi.


TIL – millat ko‘zgusi

MARHABO OLIMOVA,
“Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Tilimizning tarixi shunchalar uzoq o‘tmishga borib taqaladiki, buni adibimiz Pirimqul Qodirov o‘zining “Til va el” deb nomlangan asarida batafsil, bosqichma-bosqich tushuntirib bergan. Unda qadimgi turkiy toshbitiklardan boshlab Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy va Bobur ijodigacha bo‘lgan til taraqqiyoti xalq tarixi bilan bog‘liq holda yoritiladi.

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” nomli asarida 7500 dan ortiq turkiy so‘z va iboralar ma’nolari bilan yozib qoldirilgan. Olim bu asari orqali islom olamida hukmron bo‘lgan arab tilidan turkiy tilning boyligi, moslashuvchanligi va go‘zalligi hech ham qolishmasligini isbotlab bergan. Yana Qoshg‘ariy turli turkiy qabilalar – qarluq, o‘g‘uz, qipchoq va boshqa tillarni o‘zaro solishtirib, ularning sheva xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan. Shu sababli u qiyosiy tilshunoslikning asoschilaridan hisoblanadi.

Bobokalonimiz Alisher Navoiy ham o‘z davrida turkiy tilning boyligi, nafosati va imkoniyatlarini butun dunyoga isbotlab bergan. U “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida ikki tilni – forsiy va turkiy tillarni bir-biri bilan solishtirib, turkiy tilning



imkoniyatlari ham fors tilidan kam emasligini ilmiy asoslab bergan. Pirimqul Qodirov til haqidagi fikrlaridan birida shunday deydi: “Har bir xalq o‘zi obod qilgan vodiylar, o‘zi yaratgan shaharu qishloqlar bilan qanday faxrlansa, o‘zi yaratgan til boyliklari bilan ham shunchalik iftixor qiladi”. Demak, til ham xalqning tarixiy mehnati va ijodiy tajribasi natijasida asrlar davomida boyib borar ekan.

Millatning o‘zligini, erkinligini saqlab qolishga intilgan, o‘zini o‘ylamay kelajak avlodlarga o‘z tilining jozibasi va sehrini ko‘rsatishga, millatning ruhi uning tilida namoyon bo‘lishini ochib berishga intilgan va buni yuksak ma’naviyat hamda sadoqat bilan uddalagan insonlar bor. Ular o‘z asarlarida o‘zbek tilining naqadar boy va jozibador ekanligini, har qanday vaziyatda ham o‘z tilimiz biz uchun eng birinchi muloqot, ijod va ilm vositasi bo‘lib qolishi kerakligini ko‘rsatib berganlar.

Davomi 7-betda

MUHAMMAD YUSUF SHE’RIYATIDA VATAN OBRAZI VA MILLIY G‘URUR IFODASI



NARGIZA SHODMONOVA,
“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Muhammad Yusuf ijodi o‘zbek adabiyotida Vatanga muhabbat, milliy o‘zlikni anglash, xalq taqdiri va insoniy qadriyatlarni samimiy ifodalagan she’riy meros sifatida alohida o‘rin tutadi. Shoir she’rlarini o‘qigan kitobxon Vatan haqidagi balandparvoz so‘zlardan ko‘ra, o‘z hayotiga yaqin tuyg‘ularni, ona yurtga daxldorlik hissini, xalqning quvonchi va iztiroblarini his qiladi. Uning she’riyatidagi ta’sirchanlik ham, avvalo, shu samimiyat bilan bog‘liq.

Muhammad Yusuf Vatan haqida yozar ekan, uni faqat geografik hudud yoki davlat chegaralari bilan cheklamaydi. Shoir tasavvurida Vatan – ona allasi singgan beshik, bolalik xotiralari saqlangan qishloq, ona mehri, ajdodlar merosi, xalqning tili, tarixi va orzu-umidlaridir. Bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlikni anglash, ona tiliga hurmat, tarixiy xotirani asrash va Vatan oldidagi mas’uliyatni his etish masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda Muhammad Yusuf she’riyatiga murojaat qilish faqat adabiy merosni o‘rganish emas, balki milliy g‘ururning inson qalbida qanday shakllanishini anglash imkonini ham beradi. Chunki haqiqiy vatanparvarlik faqat yurtni madh etishdan iborat emas. U o‘z xalqining tarixini bilish, uning bugungi hayotiga befarq bo‘lmaslik, ona tilini qadrlash va jamiyat oldidagi burchni anglashda namoyon bo‘ladi. Muhammad Yusuf she’riyatining ma’naviy ahamiyati ham ana shu tuyg‘ularni o‘quvchi qalbiga yaqinlashtira olishida ko‘rinadi.

Muhammad Yusufning Vatan mavzusidagi she’riyatini tahlil qilishda, eng avvalo, uning “Vatanim” she’riga e’tibor qaratish lozim. Ushbu asarda shoirning Vatanga munosabati oddiy madh darajasida qolmaydi, balki insonning butun borlig‘i bilan ona yurtga bog‘liqligini ifodalovchi badiiy-falsafiy qarashga aylanadi. She’rning boshlanishidayoq shoir o‘zining dunyoqarashini aniq namoyon qiladi:

“Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim”.

Mazkur misralarda Vatan inson hayotining eng muhim ma’naviy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir uchun dunyoning go‘zalligi, hayotning mazmuni va insonning ruhiy osoyishtaligi ona



yurt bilan chambarchas bog‘liq. Zero, Vatanga muhabbat boshqa mamlakatlarni inkor etish yoki o‘z yurtini boshqalardan ustun qo‘yish orqali emas, balki insonning o‘z tug‘ilgan joyiga bo‘lgan tabiiy va samimiy mehr-muhabbati orqali ifodalanadi. Aynan shu jihat Muhammad Yusuf she’riyatidagi vatanparvarlik tuyg‘usini hayotiy va ishonarli qiladi.

Shoirning

“O‘zim xoqon, o‘zim sulton,
Sen taxti Sulaymonim”

misralarida ham o‘ziga xos badiiy ma’no mavjud. Bu ifodada lirik qahramon o‘zini qudratli hukmdor sifatida tasavvur qilishi bilan birga, Vatanini o‘zidan ham ulug‘roq qadriyat deb biladi. Odatda hukmdorlik, saltanat va taxt tushunchalari kuch-qudrat hamda mavqe bilan bog‘lanadi. Muhammad Yusuf esa ushbu tushunchalarni Vatanga muhabbat tuyg‘usi bilan uyg‘unlashtirib, insonning haqiqiy ma’naviy boyligi uning ona yurti bilan bog‘liqligida ekanini anglatadi. Bunday poetik yondashuv milliy g‘ururni shaxsiy manmanlikdan ajratib turadi. Chunki milliy g‘urur o‘zini boshqalardan ustun qo‘yish emas, balki o‘z xalqining tarixini, madaniyatini va qadr-qimmatini anglashdir. “Vatanim” she’rining yana bir muhim xususiyati shundaki, unda ona yurt inson hayotining turli holatlarida hamisha yonida bo‘ladigan mehribon hamroh sifatida tasvirlanadi. Shoir Vatanini shodlik kunlarida quvonchiga sherik, og‘ir damlarda esa tasalli beruvchi kuch sifatida gavdalantiradi. Bu tasvir orqali Vatan tushunchasi mavhum siyosiy yoki geografik mazmundan chiqib, insonning shaxsiy hayoti, xotiralari va ruhiy kechinmalari bilan birlashadi. Kitobxon o‘zining bolaligini, ota-onasini, mahallasini, qishlog‘ini yoki shahrini eslar ekan, shoir ifodalagan tuyg‘ularni o‘z hayoti bilan bog‘lay oladi.

KUTUBXONA-AXBOROTNI SAQLAYDIGAN EMAS, UNI HARAKATGA KELTIRADIGAN MAKON

MEHRINISO MUHIDDINOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Bugungi kunda kutubxona tushunchasi avvalgidek faqat kitoblar saqlanadigan joy bilan cheklanib qolmaydi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida kutubxonalar ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Endilikda zamonaviy kutubxona kitob, elektron resurs, ma’lumotlar bazasi, internet va inson o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli kutubxona-axborot sohasi bugungi jamiyatda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Menimcha, kutubxonaning eng katta boyligi uning javonlaridagi kitoblar soni emas, balki foydalanuvchiga kerakli axborotni kerakli vaqtda topib bera olish qobiliyatidir. Chunki hozirgi inson uchun ma’lumot yetishmasligi emas, aksincha, juda ko‘p ma’lumot orasidan keraklisini tanlash muammosi mavjud. Bir mavzu bo‘yicha internetda yuzlab, hatto minglab ma’lumotlarni topish mumkin. Ammo ularning barchasi ham ishonchli yoki foydali bo‘lavermaydi. Ana shu nuqtada kutubxonachi va axborot mutaxassisining vazifasi yanada muhimlashadi.

Zamonaviy kutubxonachi faqat kitob beruvchi xodim emas. U axborotni izlash, saralash, tizimlashtirish va foydalanuvchiga tushunarli shaklda yetkazish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan mutaxassisdir. Ayniqsa, elektron kataloglar, avtomatlashtirilgan kutubxona tizimlari, raqamli kutubxonalar va elektron ma’lumotlar bazalaridan foydalanish bugungi kutubxonachidan yangi bilimlarni talab qilmoqda.

Kutubxonani avtomatlashtirish ham sohaning rivojlanishida muhim yo‘nalishlardan biridir. Avtomatlashtirilgan tizim yordamida kitoblarning hisobini yuritish, bibliografik ma’lumotlarni saqlash, qidiruvni amalga oshirish va foydalanuvchiga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezlashtirish mumkin. Bunday tizim kutubxonachining vaqtini tejaydi va xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi.

Biroq texnologiya rivojlanayotgan bir paytda inson omilining ahamiyati kamaymaydi. Chunki kompyuter ma’lumotni topishi mumkin, lekin foydalanuvchining aynan nimaga ehtiyoji borligini tushunish, unga mos manbani tavsiya qilish va muloqot jarayonini to‘g‘ri tashkil etish insondan bilim va madaniyat talab qiladi. Shuning uchun kelajak kutubxonachisi texnologiyani ham, inson bilan ishlash madaniyatini ham yaxshi bilishi kerak.

Davomi 7-betda

BOYSUN BAG‘RIDAN

MADANIYAT VA SAN’AT SARI BOSHLANGAN YO‘L

Har bir insonning hayot yo‘lida uning kelajagini belgilab beradigan, qalbida iz qoldiradigan maskanlar bo‘ladi. Kim uchundir bu maskan bolalikning beg‘ubor xotiralari bilan bog‘liq bo‘lsa, yana kim uchundir butun umrga kasb va e’tiqod manzilini belgilab beradi. Shunday insonlar borki, ularning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, birgina shaxs taqdiri misolida butun bir sohaning rivojlanish yo‘lini ko‘rish mumkin.



BAXTIYOR SAMIYEV,
“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” mutaxassisligi 1-bosqich magistranti,
Teatr arboblari uyushmasi xodimi

Surxondaryoning qadimiy va betakror go‘shalaridan biri – Boysun ana shunday iste’dod va ma’naviyat beshigi sifatida ko‘plab ijodkorlar, san’atkorlar va ziyolilarni voyaga yetkazgan maskanlardan biridir. Uning qadimiy urf-odatlari, folklori, milliy qadriyatlari, san’atga boy muhiti inson qalbida o‘ziga xos dunyoqarashni shakllantiradi. Ana shu muhitda ulg‘ayib, hayot yo‘lini madaniyat va san’at sohasi bilan bog‘lagan insonlardan biri – O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi dotsenti Mo‘minmirzo Xolmo‘minovdir.

> Hech shubhasiz, biz ta’lim va tarbiya tizimini yanada ravnaq toptirish, soha xodimlari uchun munosib mehnat va turmush sharoitlarini yaratish masalasiga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat beramiz va o‘qituvchilikni jamiyatimizda eng obro‘li kasblar qatoriga olib chiqamiz.
>
> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
> Sh.M.MIRZIYOYEV

1993-yil 27-sentyabrda Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida dunyoga kelgan Mo‘minmirzo Xolmo‘minov Xursandov Zokir ota va Nazarova Gulbahor onaning to‘ng‘ich farzandi sifatida voyaga yetdi. Bolalik yillarida huquqshunos bo‘lishni orzu qilgan yosh Mo‘minmirzoning taqdir yo‘llari keyinchalik uni san’at va madaniyat olamiga yetakladi. Boysun bag‘rida boshlangan hayot yo‘li uni Toshkentdagi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutiga olib keldi. Go‘yo bolalikdagi orzular bir tomonga, hayotning asl da’vati esa boshqa tomonga yetaklagandek edi. Ammo vaqt ko‘rsatdiki, uning haqiqiy kasbiy yo‘li aynan madaniyat va san’at sohasi bilan chambarchas bog‘liq ekan.

2014–2018-yillarda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish” yo‘nalishida bakalavriat bosqichida, 2018–2020-yillarda esa “Madaniyatshunoslik” mutaxassisligi bo‘yicha magistraturada tahsil oldi. Talabalik yillaridanoq tashkilotchilik qobiliyati, izlanishga bo‘lgan ishtiyoqi va sohaga qiziqishi bilan ajralib turdi. Uning Boysun bag‘rida shakllangan dunyoqarashi, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va insonlar bilan samimiy muloqot qila olish qobiliyati keyingi kasbiy faoliyatida ham muhim omil bo‘ldi.

Ustozning mehnat faoliyati ham madaniyat va san’at sohasining amaliy jarayonlari bilan bevosita bog‘landi. 2018–2020-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazida turli mas’ul lavozimlarda faoliyat yuritib, xalq ijodiyotini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash, madaniyat muassasalari faoliyatini rivojlantirish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shdi. 2020-2021-yillarda muzeylar, madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniyat markazlari faoliyatini ilmiy-metodik ta’minlash yo‘nalishida mehnat qildi. 2021-yil 6-sentyabrdan boshlab esa pedagogik faoliyatini O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida davom ettirdi. Shu tariqa Boysun bag‘ridan boshlangan yo‘l oddiy bir kasbiy faoliyat yo‘li bo‘lib qolmadi. U ilm, ta’lim, boshqaruv va ustozlik yo‘liga aylandi.

Xalqimizda “Ustoz ko‘rmagan shogird har maqomga yo‘rg‘alar”, degan hikmat bor. Insonning kim bo‘lib shakllanishida uning ustozlari alohida o‘rin tutadi. Mo‘minmirzo Xolmo‘minovning ustozlari – dotsent Vahobjon Rustamov hamda siyosiy fanlar nomzodi, marhum Azamat Haydarovning o‘git va maslahatlari uning ilmiy-pedagogik shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ularning tajribasi va saboqlari yosh mutaxassisning hayot va ilm yo‘lida tobora chiniqishiga xizmat qildi.

Bugun esa ustozdan olingan saboqlarni shogirdlariga berayotgan Mo‘minmirzo Xolmo‘minovning o‘zi “ustoz” degan sharafli maqomga munosib bo‘lib kelmoqda. Ustozlik – faqat auditoriyada ma’ruza o‘qish yoki talabaga bilim berish emas. Ustozlik – shogird qalbida ilmga qiziqish uyg‘otish, uning imkoniyatlarini ko‘ra bilish, kerakli paytda qo‘llab-quvvatlash va eng muhimi, unga o‘z yo‘lini topishda ko‘maklashishdir. Mo‘minmirzo ustozning pedagogik faoliyatida aynan mana shu jihatlarni ko‘rish mumkin.

Uning ilmiy rahbarligi ostida institutimizning ikki nafar talabasi – Nilufar Maratova va Asal Xayriddinova Prezident stipendiyasiga sazovor bo‘ldi. Bu natija, bir tomondan, shogirdlarning izlanishlari va mehnati samarasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ustozning yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb eta olishi, ularga to‘g‘ri yo‘nalish va ishonch bera olishining yorqin namunasidir.

“Shogird sifatida men ham ustozimdan ko‘p narsani o‘rgandim. Ilmiy izlanishlarimga jalb qilganlari, sohamizni rivojlantirishga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga ko‘maklashganlari uchun u kishidan minnatdorman” deydi Nilufar Maratova.

Mo‘minmirzo Xolmo‘minovning faoliyatini faqat pedagogik ishlar bilan chegaralab bo‘lmaydi. U madaniyat va san’at sohasining rivojiga ilmiy va amaliy jihatdan hissa qo‘shib kelayotgan mutaxassis sifatida ham e’tirofga loyiq. Uning “Milliy madaniyat – Renessans poydevori” asari milliy madaniyatimizning mazmun-mohiyatini zamonaviy qarashlar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan ilmiy-tahliliy izlanish sifatida ahamiyatlidir. Shuningdek, “Madaniyat va san’at muassasalari xodimlarining malakasini oshirish dasturi” madaniyat muassasalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan. “San’at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari”, “Xodimlarni boshqarish”, “Ommaviy tadbirlar menejmenti” kabi o‘quv adabiyotlari esa madaniyat va san’at sohasida boshqaruv masalalarini zamonaviy menejment tamoyillari bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Bunday ilmiy-amaliy izlanishlar kelajakdagi madaniyat menejerlarini tayyorlash, ularning zamonaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Insonning haqiqiy qadrini faqat uning ilmiy darajasi, lavozimi yoki unvonlari bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Uning odamlar bilan munosabati, samimiyligi, mehribonligi, boshqalarga yaxshilik qilishga intilishi ham shaxsning chinakam qiyofasini belgilaydi. Mo‘minmirzo ustozning ana shunday fazilatlaridan biri – samimiyligi va mehmondo‘stligidir. Ustoz uchun talabalar shunchaki auditoriyada o‘tiradigan yoshlar emas, balki e’tibor, mehr va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan shogirdlardir.

Yodimda, ustozning nafaqat dars va ma’ruzalar orqali, balki oddiy insoniy munosabatlari bilan ham talabalar qalbiga yaqin bo‘lib qolgan ko‘plab holatlari bor. O‘zi tayyorlagan oshni talabalar bilan baham ko‘rishi, bir piyola choy atrofida samimiy suhbatlar qurishi oddiy bir holatdek ko‘rinsa-da, aslida bu ustozning shogirdlariga bo‘lgan mehrining o‘ziga xos ifodasidir. Talabalar orasida “Mo‘minmirzo ustozimizning oshini yemabsiz, bu dunyoga kelmabsiz”, degan hazilomuz iboraning paydo bo‘lgani ham bejiz emas. Bu jumla ortida ustozga bo‘lgan samimiy mehr, yaqinlik va hurmat mujassam.



Ustozning hamkasblari tomonidan berilgan baho ham uning shaxsiyatini yanada yorqinroq namoyon etadi. Ustozning qadrdon do‘sti va hamfikr hamkasbi Asilbek Qolqanatov Mo‘minmirzo Xolmo‘minov haqida: “Mo‘minmirzo Xolmo‘minov – kasbining fidoyi insoni”, deya ta’rif bergan. Bir qarashda bu oddiygina jumla. Ammo uning mazmuni chuqur. Chunki fidoyilik – yillar davomida shakllanadigan fazilat. Har bir darsga mas’uliyat bilan kirish, har bir shogirdga e’tibor berish, ilmiy izlanishdan to‘xtamaslik, yangi bilimlarni izlash va o‘z kasbini chin dildan sevish – ana shu fidoyilikning namoyonidir. Mo‘minmirzo ustoz uchun ustozlik shunchaki kasb emas, balki hayot tarzidir. U o‘z kasbini sevadi, o‘z ustida ishlaydi, yangilikka intiladi va shogirdlariga ham shu ruhni singdirishga harakat qiladi.

Bugun ortga qarab, ustozning hayot yo‘liga nazar tashlar ekanmiz, bir haqiqatni anglaymiz: katta yo‘llar doimo kichik qadamlar bilan boshlanadi.

Bir paytlar Boysun bag‘rida huquqshunos bo‘lishni orzu qilgan yosh bola san’at va madaniyat olamiga kirib keldi. Bu olam uni o‘z bag‘riga oldi. U talaba bo‘ldi, mutaxassis bo‘ldi, tadqiqotchi bo‘ldi, pedagog bo‘ldi va nihoyat, o‘z shogirdlariga yo‘l ko‘rsatayotgan ustozga aylandi. Bugun ustozning bosib o‘tgan yo‘li – faqat bir insonning tarjimayi holi emas. Bu yo‘lning har bir bekatida mehnat, izlanish, ustoz sabog‘i, shogird yutug‘i va insoniylik mujassam.

Shu ma’noda Mo‘minmirzo Xolmo‘minovning Boysun bag‘ridan boshlangan yo‘li hali uzoq davom etadi. Chunki bu yo‘lning manzili bitta emas. Uning manzili – ilm, ma’rifat, madaniyat, san’at va inson kamoloti.

Siz boshlab bergan yo‘l biz, shogirdlaringiz uchun ham katta maktabdir. Sizdan olgan saboqlarimiz, ilmga bo‘lgan mehringiz va kasbingizga bo‘lgan fidoyiligingiz bizning kelajakdagi faoliyatimizda ham davom etadi. Boysun bag‘ridan madaniyat va san’at sari boshlangan bu yo‘l hali ko‘plab shogirdlarni ezgu maqsadlar sari yetaklashiga ishonamiz.

KITOB MUTOLAASI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA KUTUBXONALARNING ROLI



Kitobxonlik insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Qadim zamonlardan buyon kitob ilm-fan, madaniyat, tarix va ma'naviy merosni avloddan-avlodga yetkazib kelayotgan bebaho manba sifatida e'tirof etilgan. Insoniyat taraqqiyotida yuz bergan buyuk kashfiyotlar, ilmiy yutuqlar va madaniy rivojlanishlarning asosida kitob va mutolaa madaniyati yotadi. Shuning uchun ham kitobni "bilimlar xazinasi", kitobxonlikni esa komil insonni tarbiyalovchi eng samarali vosita deb atash mumkin.

Kitobxonlik, avvalo, insonning bilim darajasini oshiradi. Inson kitob mutolaa qilish orqali o'zini qiziqtirgan soha bo'yicha chuqur bilimga ega bo'ladi, yangi ma'lumotlarni o'zlashtiradi va hayotiy tajribasini boyitadi. Maktab yoki oliy ta'lim muassasasida olingan bilimlar ko'pincha asosiy yo'nalishni bersa, kitoblar ushbu bilimlarni kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Shu sababli kitob mutolaasi uzluksiz ta'limning ajralmas qismi hisoblanadi. Kitob o'qish insonning tafakkurini rivojlantiradi.

Mutolaa davomida kitobxon voqealarni tahlil qiladi, sabab va oqibatlarni anglaydi, muallifning fikrlariga munosabat bildiradi va mustaqil xulosalar chiqaradi. Bu jarayon insonda tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada, kundalik hayotda uchraydigan muammolarni oqilona hal etish, to'g'ri qaror qabul qilish va voqea-hodisalarni chuqur baholash qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kitobxonlikning yana bir muhim jihati shundaki, u insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy adabiyotlar orqali inson ezgulik va yovuzlik, adolat va insofsizlik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi tushunchalarning mohiyatini chuqurroq anglaydi. Mashhur yozuvchi va mutafakkirlarning asarlari o'quvchini insoniy fazilatlarni qadrlashga, vatanparvarlik, halollik, mehr-oqibat va bag'rikenglik kabi yuksak qadriyatlarni hayot mezoniga aylantirishga undaydi. Shuning uchun kitob nafaqat bilim, balki ma'naviy tarbiya manbai hamdir.

Mutolaa insonning nutq madaniyati va so'z boyligini ham rivojlantiradi. Kitob o'qigan inson fikrini ravon, aniq va mantiqiy ifodalashni o'rganadi. Uning lug'at boyligi kengayadi, yozma va og'zaki nutqi takomillashadi. Bu esa ta'lim jarayonida, kasbiy faoliyatda hamda ijtimoiy munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi axborot asrida o'z fikrini asosli va ta'sirchan bayon eta olish har bir mutaxassis uchun muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Kitobxonlik ijodkorlikni rivojlantirishda ham muhim omil sanaladi. Turli janrdagi asarlarni mutolaa qilgan insonning tasavvur doirasi kengayadi, yangi g'oyalar paydo bo'ladi va u muammolarga noodatiy yechim topishga intiladi. Ilm-fan, texnologiya, san'at va tadbirkorlik sohalarida muvaffaqiyat qozongan ko'plab insonlarning muntazam kitob mutolaa qilishi bejiz emas. Chunki kitob ijodiy fikrlash va yangilik yaratish uchun zarur bo'lgan bilim hamda ilhom manbai hisoblanadi.

Yoshlar tarbiyasida kitobxonlikning o'rni alohida ahamiyatga ega. Kitob mutolaa qiladigan yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazadi, zararli odatlardan yiroq bo'ladi va o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yishga intiladi. Mutolaa ularda mas'uliyat, intizom, sabr-toqat va mehnatsevarlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shu bois oilada, maktabda va kutubxonalarda kitobxonlik muhitini yaratish yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.

Bugungi raqamli texnologiyalar davrida kitobxonlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda. An'anaviy bosma kitoblar bilan bir qatorda elektron kitoblar, audiokitoblar va raqamli kutubxonalar keng ommalashmoqda. Bu esa kitoblardan foydalanishni yanada qulaylashtiradi. Biroq kitobning qaysi shaklda o'qilishidan qat'iy nazar, uning mazmunini anglash, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish kitobxonlik madaniyatining asosiy mezoni bo'lib qoladi.

Bugungi zamonaviy kutubxonalar an'anaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmay, elektron kutubxonalar, raqamli kataloglar, audiokitoblar, elektron kitoblar va onlayn ma'lumotlar bazalari kitobxonlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratmoqda. Natijada, chekka hududlarda yashovchi fuqarolar ham sifatli axborot resurslaridan foydalanish imkoniga ega bo'lmoqda.


Zamonaviy kutubxonalar seminarlar, treninglar, kitob taqdimotlari, adabiy uchrashuvlar, mutolaa klublari va ilmiy konferensiyalarni tashkil etish orqali jamiyatning madaniy va ilmiy hayotida faol ishtirok etmoqda. Kutubxonalar jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Har bir inson, uning yoshi, kasbi yoki moddiy imkoniyatidan qat'iy nazar, kutubxona xizmatlaridan teng foydalanish huquqiga ega. Bu esa bilim olish imkoniyatlarining tengligini ta'minlaydi va jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun yaratilayotgan maxsus kutubxona xizmatlari, audiokitoblar va moslashtirilgan axborot resurslari inklyuziv jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kutubxona fondlarini muntazam boyitish ham amalga oshirilayotgan muhim ishlardan biridir. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar, badiiy asarlar, bolalar va o'smirlar adabiyoti, xorijiy mualliflarning tarjima asarlari, ensiklopediyalar, lug'atlar va ilmiy jurnallar bilan fondlarni to'ldirish orqali kitobxonlarning turli qiziqish va ehtiyojlari qondirilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning kasbiy yo'nalishlari, yosh xususiyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda yangi adabiyotlarni tanlash kutubxonalarning ustuvor vazifalaridan biriga aylangan.

Yoshlarni kitob mutolaasiga keng jalb etish maqsadida respublika, hududiy va mahalliy miqyosda turli tanlovlar hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam tashkil etilmoqda. Kitobxonlik tanlovlari, mutolaa marafonlari, kitob taqdimotlari, adabiy kechalar, davra suhbatlari, yozuvchi va shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar, kitob yarmarkalari hamda kitob festivallari yoshlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday tadbirlarda ishtirok etish orqali yoshlar o'qigan kitoblarini tahlil qilish, o'z fikrini asosli bayon etish, bahs-munozaralarda qatnashish va tengdoshlari bilan bilim almashish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Kutubxonachilarning malakasini oshirish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron resurslar bilan ishlash, bibliografik xizmatlarni rivojlantirish, kitobxonlarga maslahat berish va innovatsion kutubxona xizmatlarini tashkil etish bo'yicha malaka oshirish kurslari va seminarlar o'tkazilmoqda.

Malakali kutubxonachi yosh kitobxonni qiziqtiradigan adabiyotlarni tavsiya etishi, uning axborot ehtiyojlarini aniqlashi va mutolaa jarayoniga yo'naltirishi orqali kitobxonlik madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shuningdek, yoshlar orasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishda jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, nashriyotlar va ommaviy axborot vositalari ham faol ishtirok etmoqda. Turli xayriya aksiyalari doirasida kutubxonalarga yangi kitoblar topshirilmoqda, chekka hududlardagi kutubxonalar qo'llab-quvvatlanmoqda, kitob yarmarkalari va kitob festivallari tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar kitobni keng jamoatchilik orasida ommalashtirish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.



AZIZA NORQULOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi


Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, kitobxonlik insoniyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, u jamiyatning intellektual salohiyati, ma'naviy yuksalishi va madaniy rivojlanishini ta'minlaydigan muhim vositadir. Kitob mutolaasi orqali inson bilim oladi, dunyoqarashini kengaytiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, hayotiy tajribasini boyitadi hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni chuqur anglaydi. Shu sababli kitobxonlikni rivojlantirish nafaqat ta'lim tizimining, balki jamiyatning barcha sohalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, kitobxonlikni rivojlantirish – bu inson kapitaliga investitsiya kiritish, jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish va mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash demakdir. Kitobni sevuvchi va mutolaani hayot tarziga aylantirgan yoshlar kelajakda bilimli mutaxassis, tashabbuskor rahbar, mas'uliyatli fuqaro va yuksak ma'naviyat egasi sifatida jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shadi.

Shunday ekan, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish, kutubxonalarni zamonaviy bilim va innovatsiyalar markaziga aylantirish hamda mutolaani jamiyatning kundalik ehtiyojiga aylantirish mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri bo'lib qoladi. Zero, kitobga oshno jamiyat – bilimli jamiyat, bilimli jamiyat esa kuchli davlat va farovon kelajakning mustahkam poydevoridir.

Tafakkur

O'qish-o'rganishni to'xtatgan odam qariydi. Yoshi yigirmadami yo saksondami – ahamiyatsiz. O'rganishda davom etgan odam yosh bo'lib qolaveradi. Hayotdagi eng muhim narsa – miyani yosh saqlash.



Henri FORD

Haqiqat havoga o'xshaydi. Rangini ko'rmaysiz. Ovozini eshitmaysiz. Hidini bilmaysiz... Ammo bir lahza havosiz qolsangiz, bo'g'ilib ketasiz. Kitob ham shunday. Yolg'onga duch kelgan kitobxon bo'g'ilib ketadi.



O'tkir HOSHIMOV



DILNOZA KARIMOVA,
“Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

ONA TILIM

Al Xorazmiy “Al Jabrni” yozganida,
Al Beruniy ilmga yo‘l ochganida,
Ko‘hna tarix xatlarida barhayotsan,
Sarhadlarda buyugimsan Ona tilim.

Tibbiyotning sultonidir Ibn Sino,
Davo izlab, shifo topar butun dunyo,
O‘zbek tilim, Turkiy tilim, Ona tilim,
Sensan mening iftixorim ham g‘ururim.



RA’NO ABDULLAYEVA,
“Kutubxona - axborot faoliyati” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi, “Muhammad Yusuf” nomli stipendiya sohibasi

O‘ZBEK TILI

Moziydan yangraydi Navoiy bo‘lib,
Mardona misoli Temurning tig‘i.
Dunyoga taralib bormoqda sekin,
Quyoshning nuriday o‘zbegim tili.

Sen Bobur ko‘ksida titragan nola,
Shiroqning qonidek sachragan ohang.
Ajdodlar ruhi ila aylagan parvoz,
Bulbulning ohiga bo‘lib hamohang.

Shevalar ichida erkalanar goh,
Jaydari xalqimning suhbatida jo.
Navoga solishib kuylasalar gar,
Eshitgan yuraklar bo‘lar mubtalo.

Satrlar teramiz saradan-sara,
Yaratganning bergan hadiyasida.
Har kuni o‘zbegim kuyladi uni,
Abdulla Oripov madhiyasida.



BARNO SAMANDAROVA,
O‘zJOKU “Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar” ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi, “Zulfiya” mukofoti sovrindori

MUHAMMAD YUSUF

Vatan ko‘rkin madh etgansiz mehr bilan,
Har satringiz yaralgan nur, sehr bilan.
“Ulug‘imsan, suyugimsan vatan”, – degan,
O‘zbegimning shoirisiz, Muhammad Yusuf.

Har buyukni o‘zim, deya hurmat qilgan,
Xalq so‘zini o‘ziga dur, hikmat bilgan.
Oh, “Nega yig‘lamaysan, Andijon”, – degan,
O‘zbegimning chin shoiri Muhammad Yusuf.

Ona tilin jondan suyagan insondirsiz,
Siz o‘zingiz qalbimizda vijdondirsiz.
“Ona tilim kechir meni, kechir”, – degan,
O‘zbegimning fidoyisi Muhammad Yusuf.

Siz buyuksiz, ota nomin pok saqlagan,
Qiz bolani farishtaga qiyoslagan.
Va: “Qay o‘gildan kamdir qizingiz”, – degan,
Otalarning vijdonisiz, Muhammad Yusuf.

Doim halol doimo u pokdil bo‘lgan,
Xalqim, desa qalbi iftixorga to‘lgan.
“Sen islomdan iymon darsin o‘rgan”, – degan,
E’tiqod-iymoni but Muhammad Yusuf.

Ne bo‘lsa ham xalqning g‘amin o‘ylab o‘tdi,
El g‘amini o‘z g‘amim, deb kuylab o‘tdi.
“Shuncha g‘aming yetmasmi, Farg‘ona”, – deb,
Bir mard-u maydon bo‘ldi Muhammad Yusuf.

Ash’orlari ko‘ngilni yashnataverar,
Shoirlar davrasida hamon so‘z aytar.
Jaranglar: “Men bittaman, bittaman”... afsus,
Ming afsus erta ketdi, Muhammad Yusuf.

G‘amlarini bildirmay ichiga yutdi,
Faqatgina Allohdan bir najot kutdi.
“Men dardimni kimga aytay”, – deb yonib,
Xatolardan kuydi ming Muhammad Yusuf.

Sog‘inchlar azobida o‘zin tuzladi,
Ajdodlari o‘tgan yo‘l dilin tig‘ladi.
U “bolalik chog‘larin qumsagan” damlar
Yuraklarda uyg‘ondi Muhammad Yusuf.

Xohishimdir, tilagimdir sizdek bo‘lmoq,
Xuddi sizdek haq so‘z aytib kuylamoq.
“Eslab qo‘ying Muhammadni”, – degansiz,
Yashayapsiz jonimda, Muhammad Yusuf.



NILUFAR DO‘STOVA,
“Kutubxona-axborot faoliyati” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ARZIYSIZ-DA

Tilab olgan tangri bergan qismatimsiz,
Birov bilmas ko‘nglimdagi siyratimsiz,
Dunyolardan topgan qadr-qimmatimsiz,
Baxtim bilib kutmoq uchun arziysiz-da.

Shodlansam gar tuyg‘ularim tayanchidan,
Kechsam gar men dunyolarning ishonchidan,
Ming shodlansam bir on diydor quvonchidan,
Lablarimda kulmoq uchun arziysiz-da.

Pandlar esa oro yo‘lda sarson ko‘nglim,
Tuhmatlardan lol qolsa goh biyron tilim,
Nohaqlardan kemtik bo‘lsa yarim dilim,
Shu ko‘nglimni to‘ldirmoqqa arziysiz-da.

Rozidirman rashk o‘tida yonib o‘tsam,
Ming orziqib sog‘inchlarda sizni kutsam,
Eng chiroyli she‘rlarimda sizni bitsam,
Har bir satrim bo‘lmoq uchun arziysiz-da.

Hamal kirsa yetsa bahor yomg‘irlari,
Lablarimda ko‘z yoshlaridan tomchilari,
Tongda ismim aytsin sizga shabnamlari,
Titroqlarim bo‘lmoq uchun arziysiz-da.

Ishqingiz gar dilimda dard bo‘lib oqsa,
Chechaklarni qizaloqlar sochga taqsa,
Bir bor keling yana agar yomg‘ir yog‘sa,
Bahorlarim bo‘lmoq uchun arziysiz-da.

Ismingizdan yuragimga tumor taqsam,
Ko‘nglingizni o‘zga emas o‘zim olsam,
Tonglar turib, baxtingiz-chun duo qilsam,
Sajdagohim bo‘lmoq uchun arziysiz-da.

Besh kun dunyo o‘tmas balki bizni siylab,
Yurarmisiz g‘iybatlarda nomim so‘ylab,
Olislarda siz ham balki meni o‘ylab,
Shahzodam ham bo‘lmoq uchun arziysiz-da.

Changqovuz sadosi

RA’NO ODILOVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Changqovuz – xalqimizning asriy an’analarini o‘zida mujassam etgan eng kichik hajmli, biroq o‘ta noyob cholg‘u asboblaridan biridir. U o‘ziga xos tembri, nafis jaranglashi va ijro usuli bilan xalq musiqa ijodiyotida alohida ajralib turadi. Cholg‘u asbobining asosiy konstruktiv qismi ramka (tana) hamda uning markazida joylashgan elastik tilchadan iborat bo‘lib, tilcha barmoq yordamida tebratilganda akustik tovush hosil bo‘ladi. Ijro jarayonida inson og‘iz bo‘shlig‘i rezonator vazifasini bajarib, sozning quvvati va tembrini o‘zgartirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mazkur sozning tuzilishiga ko‘ra yoysimon va plastinkasimon shakllari mavjud bo‘lib, ular qadimdan asosan suyak, qattiq yog‘och, qamish hamda metall kabi xomashyolardan tayyorlangan.

Changqovuzning tarixi insoniyat musiqiy tafakkurining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Bu cholg‘u nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyo, Sibir, Uzoq Sharq, shuningdek, Yevropa, Osiyo va Afrikaning ko‘plab xalqlarida turli shakl hamda nomlar (vargan, homus va boshqalar) ostida keng tarqalgan.

O‘zbek musiqa merosida changqovuzning ilk namunalari chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ayrim tarixiy-etnografik manbalarda uning qahramonalik dostonlarimiz, xususan, “Alpomish” eposi bilan ma’naviy bog‘liqligi ham qayd etilgan. O‘tmishda changqovuzdan asosan xotin-qizlar va yoshlar o‘z kundalik turmushida, oilaviy marosimlarda faol foydalanib kelgani haqida ma’lumotlar saqlanib qolgan.



Bu cholg‘u ko‘proq xalq orasidagi sodda maishiy musiqa, lirik kayfiyat va ko‘ngilochar ijrochilikning ajralmas qismi bo‘lgan. Changqovuzni chalish muayyan mahoratni talab etadi: uni lab orasida ushlab, tilchasini barmoq bilan tez tebratish kerak bo‘ladi. Hosil bo‘lgan dastlabki tovush ijrochining og‘iz bo‘shlig‘i va til holati o‘zgarishi hisobiga turli ob-havo sharoitlariga, qushlarning sayrashi, tabiat hodisalari hamda hayvonlarning ovozlariga mohirona taqlid qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda changqovuz an’anaviy ijrochilik sifatida O‘zbekistonning ayrim hududlarida, jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarining folklor muhitida yaxshi saqlangan. Ayniqsa, 1990-yillardan boshlab mazkur qadimiy soz folklor-etnografik jamoalar va ansambllar repertuaridan muhim o‘rin egallay boshladi. Bu esa unutilib borayotgan milliy cholg‘u turlarini qayta tiklashga zamin yaratdi. Mahalliy tadqiqotchi Qahramon Rashidov o‘zining bir qator ilmiy izlanishlari va maqolalarida changqovuzning tarixiy kelib chiqishi, uning an’anaviy va zamonaviy ijrochilik uslublarini chuqur tahlil qilgan. Olimning tadqiqotlarida bu asbobning o‘zbek milliy musiqa madaniyatidagi o‘rni ilmiy asoslab berilgan. Shu bilan birga, ushbu noyob sozni amaliyotga joriy etish va yosh avlodga o‘rgatishda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti professori O‘razali Toshmatovning xizmatlari beqiyosdir. Xususan, uning ilmiy-amaliy rahbarligi ostida Abrayqulovlar badiiy jamoasi faoliyati yo‘lga qo‘yilib, talabalarga changqovuz ijrochiligining sir-asrorlari muntazam ravishda o‘rgatib kelinmoqda.

Yuqoridagi ilmiy va madaniy tahlillardan xulosa qilib aytish mumkinki, changqovuz xalqimizning asriy turmush tarzi, estetik didi va etnomadaniyatdan darak beruvchi qimmatli musiqiy merosidir. Uning tuzilishi juda sodda va kichik bo‘lishiga qaramay, akustik imkoniyatlarining kengligi uni boshqa xalq cholg‘ulari orasida alohida maqomga ega qiladi. Hozirgi davrda changqovuzni ilmiy asosda o‘rganish, uni amaliy ijrochilikka keng tatbiq etish orqali qadimiy musiqa an’analarimizni bardavom saqlab qolish mumkin. Shu sababli folklor jamoalarining bunday noyob cholg‘uga murojaat qilishi uni kelajak avlodlarga yetkazishda strategik ahamiyat kasb etadi. Bu madaniy boylikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, uni keng targ‘ib etish va yosh iste’dodlarga puxta o‘rgatish bugungi musiqashunoslik va madaniyat sohasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

TIL – millat ko‘zgusi

Boshlanishi 2- betda

Shulardan bir misol, jadidchilik harakati namoyandalaridan biri, mutafakkir Abdulla Avloniy o‘zining “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida shunday deydi: *“Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgan oynai hayoti tili va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak – millatning ruhini yo‘qotmakdur”.* Demakki, xalqning tili yo‘qolsa, uning tarixiy xotirasi, urf-odatlari, dunyoqarashi va avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqasi ham zaiflashar ekan. Shunday mutafakkirlarimizdan yana biri Abdurauf Fitrat bo‘lib, u ham o‘z davrining qiyinchiliklari va bosimlariga qaramay, o‘zbek tilining boy imkoniyatlarini ochib berishga uringan. Fitrat 1919-yilda yozilgan “Tilimiz” nomli maqolasida shunday fikrlarni ilgari suradi: *“Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so‘zning to‘g‘risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili ham yana turkchadir”.* Ya’ni, Fitrat ushbu maqolasida turkiy til naqadar keng, boy hamda xalqning tarixiy tafakkuri va ma’naviyatini aks ettiradigan til bo‘lsa-da, uning o‘z egalari unga yetarlicha e’tibor bermayotganini kuyinib bayon etadi.

O‘zbek millatini yuksak darajada shakllantirish hamda tilimizdagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yo‘lida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning



2020-yil 20-oktyabrdagi farmoni bilan 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Ushbu hujjat asosida bugungi kunda texnik atamalarni tartibga solish, elektron lug‘atlarni yaratish, o‘zbek tilini raqamlashtirish, nutq madaniyatini yaxshilash hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarga integratsiyalash vazifalari belgilab berildi.

Ammo ushbu davlat qarorlarining o‘zi bilangina tilimiz to‘liq takomillashib qolmaydi. To O‘zbekistonning har bir fuqarosi o‘z nutqiga, savodxonligiga e’tibor qaratmas va atrofidagi kichik kamchiliklarga ham ko‘z yumishda davom etar ekan, tilimiz kutilganidek rivojlanishga yuz tutmaydi. Zero, til rivoji – bu xalqimizning har bir vakiliga birdek tegishli va taalluqli bo‘lgan muqaddas burchdir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, jadid ma’rifatparvari va tilshunos olim Elbek ham o‘z vaqtida: *“Til – millatning eng oliy va muqaddas mulkidir, uni asramoq har bir insonning o‘z eliga bo‘lgan sadoqatini belgilaydi”,* deya qayta-qayta uqtirgan edi. Darhaqiqat, ona tilimizga bo‘lgan e’tibor va ehtirom, shunchaki qog‘ozdagi qoidalar emas, balki qalbimizdagi milliy g‘urur va ma’naviy uyg‘onish aksidir. Modomiki tilimiz millatimiz ko‘zgusi ekan, ushbu ko‘zguni doimo tiniq va ravshan tutish, uni kelajak avlodlarga beg‘ubor va boy holatda yetkazish har birimizning vijdoniy burchimiz bo‘lib qolmog‘i lozim.

KUTUBXONA-AXBOROTNI SAQLAYDIGAN EMAS, UNI HARAKATGA KELTIRADIGAN MAKON

Boshlanishi 3- betda

Kutubxonaning yana bir muhim vazifasi – yoshlarning mutolaa madaniyatini shakllantirishdir. Bugungi yoshlar axborotni ko‘pincha telefon va internet orqali qabul qilmoqda. Bu holat kutubxona uchun muammo bo‘lishi bilan birga, yangi imkoniyat ham yaratadi.

Masalan, elektron kataloglar, virtual ko‘rgazmalar, onlayn bibliografik xizmatlar va elektron kitoblar orqali kutubxona foydalanuvchiga uning kundalik raqamli muhitida ham xizmat ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan, kelajak kutubxonasi devorlar bilan chegaralanmaydi. U elektron makonda ham mavjud bo‘ladi. Foydalanuvchi kutubxonaga kelmasdan turib kerakli adabiyotni izlaydi, bibliografik ma’lumot oladi, elektron resursdan foydalanadi va mutaxassis bilan maslahatlashadi. Bu esa kutubxona-axborot xizmatlarining imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, kutubxona-axborot sohasi kitob va texnologiyaning oddiy birlashmasi emas. Bu – inson, axborot va texnologiya o‘rtasidagi muhim



bog‘lanishdir. Zamonaviy kutubxonaning vazifasi faqat mavjud bilimlarni saqlash emas, balki ularni izlayotgan inson uchun topish, saralash va foydali bilimga aylantirishga yordam berishdir. Zero, kelajakda kutubxonalar qanchalik raqamlashtirilmasin, ularning asosiy markazida baribir inson va uning bilimga bo‘lgan ehtiyoji turadi.

MUTOLAA TAASSUROTLARI:

DINO BUTSSATINING “ISHQIY MAKTUB” hikoyasi haqida



VALIJON ABDURAHIMOV,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Yoz mavsumida “Mutolaa” ilovasi orqali ko‘plab badiiy asarlarni o‘qib chiqish imkoniyati bo‘ldi. Ijtimoiy tarmoqlarning shovqin-suronidan yiroqlashib, kitoblar olamiga sho‘ng‘ish inson ruhiyatiga o‘zgacha bir osudalik bag‘ishlaydi. Yozgi mutolaa davomida qalbimda chuqur iz qoldirgan va uzoq vaqt mushohada yuritishga majbur qilgan asarlardan biri mashhur italyan adibi Dino Butssati qalamiga mansub hamda mahoratli tarjimon G‘ayrat Saydullayev o‘zbek tiliga o‘girgan “Ishqiy maktub” hikoyasi bo‘ldi.

Dino Butssatining ushbu asari odatiy romantik izhorlardan, balandparvoz gaplardan tubdan farq qiladi. Unda zamonaviy inson ruhiyatining chigal qatlamlari va uning ichki dunyosi bilan tashqi muhit o‘rtasidagi shafqatsiz ziddiyat g‘oyatda teran yoritilgan bo‘lib, hikoya markazida yirik firma xo‘jayini Enriko Rokko obrazi turadi. U xonasida yolg‘iz qolib, o‘zi ko‘ngil qo‘ygan ayol – Frankiga o‘zining eng samimiy va pokiza tuyg‘ularini izhor etish uchun maktub yozishni boshlaydi. Biroq har safar qalam tebratib, maktubga o‘z qalbining bir parchasini muhrlamoqchi bo‘lganida, uni ketma-ket telefon qo‘ng‘iroqlari, ish-tashvishlar va sheriklarining rasmiy hisob-kitoblari bo‘lib qo‘yaveradi.

Hikoyadagi eng ta’sirli dinamika maktub va telefon qo‘ng‘iroqlarining ketma-ket almashinuvidir. Bir tomonda insonning eng nozik, samimiy va javobsiz qolayotgan muhabbat izhori, ikkinchi tomonda biznes dunyosining sovuq, mantiqiy, pul va shartnomalarga to‘la moddiy voqeligi. Har bir telefon go‘shagi qo‘yilgach, Enriko maktubga qaytganida undagi hissiyotlar borgan sari so‘nib boraveradi. Ishbilarmonlik dunyosining sovuq ruhi uning samimiyatini asta-sekin yutib yuboradi. Hikoya yakunida u yozgan xat dastlabki pokiza tuyg‘ulardan mahrum bo‘lib, shunchaki rasmiy va quruq jumlalar yig‘indisiga aylanib qoladi.

G‘ayrat Saydullayev tarjimasi Butssatiga xos bo‘lgan vazmin, bosiq, ammo psixologik zo‘riqishga boy uslubni o‘zbek tilida g‘oyatda aniq va ta’sirchan yetkazgan. Ushbu hikoya o‘quvchiga muhim bir haqiqatni eslatadi: bugungi shoshqaloq va texnika rivojlangan davrda insonlar ba’zan o‘zlarining eng go‘zal tuyg‘ularini asrab qolishda ojizlik qilmoqda. “Ishqiy maktub” shunchaki kichik bir hikoya emas, balki har birimizni o‘z ichki dunyomizga va hayotimizdagi haqiqiy qadriyatlarga teranroq nazar tashlashga chorlaydigan unutilmas badiiy saboqdir.


“OYDIN TUNLAR” muhabbatning to‘rt kechasi



RUXSHONA YUNUSOVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Dostoyevskiyning durdona asarlaridan hisoblanadi. Ushbu asar romantik psixologik bo‘lib o‘quvchini chuqur o‘yga solib qo‘yadi. Asar qahramoni ismi keltirilmagan yigit “Xayolparast” u sof qalbli, atrof-muhit, reallikdan uzilib o‘z xayollarida yashovchi yigit. Nastenka esa baxtsiz va yolg‘iz, buvisining qattiq nazorati ostida yashaydi. U bir yil avval unga sevishini va qaytib kelishini aytgan yigitni kutadi. Ularning uchrashuvi kechasi ko‘prik yonida boshlanadi. Nastinka ko‘prik oldida yig‘lab turganida Xayolparast uni ko‘radi, unga tasalli beradi, Nastinkaning dardini eshitadi, unga hamdard bo‘ladi. Bora-bora unga o‘rganib qoladi, ammo Nastinkaning qalbi boshqasiga tegishli ekanini, undan umid qilmasligi kerakligini ogohlantiradi. Chunki Nastenka uni yaqin do‘sti, dardkashidek ko‘radi. Qiz bir yildan buyon o‘z sevgilisini kutayotgandi, unga xatlar yozardi ammo javob kelmasdi. Keyinchalik ushbu uch kun davomida Nastinka unga ham o‘rganib qoladi va agar sevgilisi qaytmasa, u bilan baxtli hayot kechirishga va’da beradi. Biroq to‘rtinchi kechada kutilmaganda sevgilisini uchratib qoladi. Qiz tuyg‘ularga sodiq qolgan holda uni tanlaydi va Xayolparastga rahmat aytib, sevgilisi bilan ketadi. Xayolparast esa yana avvalgidek yolg‘iz qoladi. Asarni mutolaa qilgandan so‘ng o‘quvchilarning fikri ikkiga bo‘linadi. Biri Nastinka Xayolparastga nohaqlik qildi desa, boshqasi u avvaldan ogohlantirganligini, uning sevgan insoni borligi haqida aytganini, undan umid qilmasligini kerakligini ta’kidlashadi…

QO‘RQMA!



MAHLIYO RISQULOVA,
“San’at jurnalistikasi” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Insonni hayotga undaydigan narsa nima?

Biz bu hayotga kelishimizdan maqsad, hayotimizda nima ish qildikki, jamiyat butun umr olqishlaydi? Bu hayotda o‘z o‘rningni topishing, doimo omma e’tiborida yurishing uchun butun umr boylik orttirishing shart emas. Shunchaki, o‘zingdan keyingi avlodga kuch bo‘la oladigan nimadir qoldirishingni o‘zi yetarli. Ular shu ishni uddalay olgan fidoyilardan edi... Mazkur asarda 70 nafar talaba o‘zining nafsi uchun hech qanday maqsadni oldiga qo‘ymagan, pul va boylikka uchmagan, o‘z hayotini xavf ostiga qoldirib yurt ravnaqi, farovonligi uchun kurashgan insonlar haqida so‘z boradi. Men hech qachon tasavvur olamida bunchalik suzmaganman, ammo yuksak iste’dod bilan 70 nafar talabaning hayotini tanishtirish, bu boshqacha hissiyot.

Muallif Javlon Jovliyev “Qo‘rqma” asari orqali insonning asl maqsadi tirik qolish, qornini to‘ydirish bo‘lgan bir paytda, yoshlarning ongini tiriltirish bilan shug‘ullanganlar. Men uchun ushbu kitobda “jigar” so‘zi asosiy ibora, chunki jigar og‘riq bermaydi, lekin qurib qolsa, inson bu hayotdan uziladi, ong ham jigardek gap. U asta-sekin quriydi va yaroqsiz holatga keladi, bunday vaziyatda inson jismonan tirik, ammo ruhan o‘lik holatda.

Asarda Lola ko‘prik, intilish timsolida chunki qahramon uning yoniga borish yo‘lida talabalarni o‘zi uchun kashf qiladi, ammo Lola hayotidan yo‘qolgandan so‘ng, o‘zi ham tamom bo‘ladi, lekin qizil askar kimligini, fidoyilar kim ekanini bilib oladi. Qahramonning kursdoshlari bilan suhbatida shunga amin bo‘ldimki, hozirgi kunda yetmishvoylar kabi yurt uchun harakat qilayotgan talabalar yo‘q ekan. “Germaniyada ta’lim olgan talabalar uchun sadaqa qilinglar” jamiyat insonlariga bu kulgili, ammo og‘riqli nuqta ham shunda. Bu jamiyatning tugayotganidan dalolat, ammo jamiyatni ushlab turgan insonlar she’rxonlik uyushtirib, xayriya orqali pul yig‘ib, talabalar uchun mablag‘ ajratishgan. Bu satrlar, voqealarni o‘qib insonni ko‘ziga beixtiyor yosh keladi. Hozirgi yashab turgan hayotimizda yetmishvoylar bormi? Men unday insonlar qatoriga o‘zimni qo‘sha olmayman, ammo ushbu asarni o‘qib, ular kabi yashashga, fikrlashga harakat qilishim zarur ekanligini tushunib yetdim.

Tafakkur



Roman yozish xuddi quduq qazishga o‘xshaydi. Har kuni siz tobora chuqurroqqa sho‘ng‘iysiz. Eng muhimi to‘xtamaslikdir. Agar quduqni bir necha kunga ochiq qoldirsangiz, u qurib qoladi. Ayni avjiga yetgan ilhomni saqlab qolish uchun har kuni ishlashingiz kerak.

Xaruki MURAKAMI

Muassis:
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:
Baxtiyor YAKUBOV

Tahrir hay’ati:
Hamdam ISMOILOV
Oybek DAVLATOV
Doniyor MIRZO
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug‘ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani, Yalang‘och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O‘lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 30.10.2026-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro‘yxatga olingan.

Gazeta elektron ko‘rinishda havola etilmoqda